

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT







Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 8 077,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 14,7 % ga o'sdi.




YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,0 % ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021- yil yanvar- mart	2022- yil yanvar- mart	
	I. YAHM	6 504,8	8 077,9	114,7
	<i>shu jumladan:</i>			
	tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 163,2	7 745,9	113,7
	mahsulotlarga sof soliqlar	341,6	332,0	133,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 163,2	7 745,9	113,7
	qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 370,4	1 555,0	102,7
	sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 988,0	2 834,1	133,8
	sanoat	1 570,6	2 329,4	141,0
	qurilish	417,4	504,7	106,7

		Mld. so‘m		O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2021- yil yanvar- mart	2022- yil yanvar- mart	
	xizmatlar	2 804,8	3 356,8	114,2
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	611,9	716,8	111,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	477,7	543,7	104,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 715,2	2 096,3	118,0

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 477,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 12,4 % ga yuqoridir.



Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘shish sur‘atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,9 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,1 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 20,1 % ni, sanoat tarmog‘i 30,1 % ni, qurilish 6,5 % ni va xizmatlar sohasi 43,3 % ni tashkil qildi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2021- yil	2022- yil
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	94,7	95,9
	mahsulotlarga sof soliqlar	5,3	4,1
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	22,2	20,1
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	32,3	36,6
	sanoat	25,5	30,1
	qurilish	6,8	6,5
	xizmatlar	45,5	43,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9,9	9,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,8	7,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	27,8	27,0




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil




2022- yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,7 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 20,1 %), sanoatda – 141,0 % (30,1 %), qurilishda – 106,7 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 104,8 % ni (43,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 104,9 % (9,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,9 % (7,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (27,0 %) iborat bo'ldi.




Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 9,9 f.p.(2021- yilning yanvar-martida salbiy 6,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,7 f.p. (2021- yilning yanvar-martida salbiy f.p.)ga ko'paydi.




2022- yilning yanvar-mart oylarida
YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari o'sishiga YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 114,2 % va qurilishda 113,4 % va qayd etildi



Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)



2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 57,5 % ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 61,8 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.